

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884



ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol.2 N.1

2026

**International Journal of
Contemporary Scientific
and Technical Research**

**Volume 2 Issue 1
2026**

**Zamonaviy ilmiy-texnik
tadqiqotlar xalqaro jurnali**

**1-son
2026**

**Международный журнал
современных научно-
технических
исследований**

**Том 2 Выпуск 1
2026**



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

Xalqaro ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

Bosh muharrir:

A.A. Abdumalikov

Tahrir kengashi mas'ul kotibi:

D.M. Jomurodov

Tahririyat hay'ati:

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O'zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O'zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro'yxatidan o'tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O'zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.

© "O'zMU Jizzax filiali" – 2023

Tahririyat manzili:

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sh.Rashidov Shox ko'chasi, 259-uy.

TALABALARNI MILLIY HUNARMANDCHILIK VA EKOTURIZM VOSITASIDA SAMOGEN TARBIYALASHDA SHAROITLAR

Allanov Shuxrat Qilichovich

Termiz davlat pedagogika instituti, katta o'qituvchi

Annotatsiya

aqolada talabalarni milliy hunarmandchilik va ekoturizm vositasida samogen tarbiyalashning iqtisodiy-geografik shart-sharoitlari mahalliy va xorijlik tadqiqotchi olimlar tomonidan tahlil qilingan. Xorijlik tadqiqotchi olimlar tomonidan O'zbekistonning milliy hunarmandchilik tarixi, uning tadrijiy va hozirgi rivojlanish xususiyatlari, hududiy o'ziga xosligi to'g'risida qimmatli ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: hunarmandchilik, hunarmand, xususiyat, hudud, kulol, kulolchilik, naqqosh, naqqoshlik, ipakchilik, to'quvchi, kasanachilik, imkoniyat, do'ppido'z, sandiqsozlik, ganchkor.

УСЛОВИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ ПОСРЕДСТВОМ НАРОДНЫХ ПРОМЫСЛОВ И ЭКОТУРИЗМА

Алланов Шухрат Киличович

Термезский государственный педагогический институт, старший преподаватель

Аннотация

В статье анализируются экономико-географические условия самостоятельного обучения студентов посредством народных промыслов и экотуризма отечественными и зарубежными исследователями. Зарубежные исследователи предоставляют ценную информацию об истории народных промыслов в Узбекистане, особенностях их постепенного и современного развития, а также региональной специфике.

Ключевые слова: промыслы, ремесленник, характеристики, регион, гончар, гончарное дело, художник, живопись, шелкоткачество, ткач, ремесла, возможности, шляпное дело, сундукостроение, ганчкор.

CONDITIONS FOR THE INDEPENDENT EDUCATION OF STUDENTS THROUGH NATIONAL CRAFTS AND ECOTOURISM

Allanov Shuxrat Qilichovich

Termez State Pedagogical Institute, Senior Lecturer

Abstract

The article analyzes the economic and geographical conditions for the independent education of students through national crafts and ecotourism by domestic and foreign researchers. Foreign researchers provide valuable information on the history of national crafts in Uzbekistan, the features of its gradual and current development, and its regional specificity.

Keywords: crafts, craftsman, characteristics, region, potter, pottery, painter, painting, silk weaving, weaver, home-made crafts, opportunity, hat-making, chest-making, ganchkor.

Ma'lumki, milliy hunarmandchilik O'zbekistonda qadimdan rivojlangan bo'lib, milliy hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish ajdodlardan avlodlarga an'anaviy tarzda o'rgatib kelingan. Bu borada Zahiriddin Muhammad Boburning Boburnoma asarida ham qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Biroq o'tgan asrdagi siyosiy jarayonlar va mustabid tuzum davrida milliy hunarmandchilik butunlay izdan chiqdi. Faqatgina mustaqillik arafasida bu qadriyatlar qayta tiklana boshlandi.

T.A. Faxrutdinova o'zining monografik asarlarida O'zbekistonning milliy amaliy san'ati namunalari hamda bu san'atning ajdodlardan avlodlarga o'tishi jarayonlari haqida san'atshunos olim sifatida mulohaza yuritgan. Tadqiqotchi T. Abdullaev XIX–XX asrlarda O'zbekistonda milliy hunarmandchilikning rivojlanish bosqichlari va tendensiyalarini ochib berishga harakat qilgan.

“Qayta qurish” erkinligi ta’sirida XX asrning 80-yillari o’rtalarida R.H. Karimov, F.X. Nabiev, F.B. Isoqovlarning monografik asarlarida avvalgi siyosiy sharoitlar ta’sirida chetlab o’tilgan yoki buzib yoritilgan tarixning ayrim sahifalariga yangicha yondashilib, ularni xolisona tahlil etishga harakat qilingan.

O’zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so’ng tadqiqotchilarning milliy hunarmandchilik, hunarmandlar tayyorlash va ekoturizm masalalarini o’rganishga bo’lgan qiziqishi faollashdi. Jumladan, mustaqillik yillarida Sh. G’oyibnazarov, I. Jabborovning monografik asarlari, A. To’qsonov, I. Suleymonov, A. Kurahmedov, M. Hamidovanning ilmiy maqolalari e’lon qilindi.

O’zbekistondagi milliy hunarmandchilik tarixini bir qator xorijlik tadqiqotchilar ham o’rganishga harakat qilganlar. Nemis olimlari Judit Peltz va Klaus Pander tomonidan yaratilgan monografik asarlarda o’zbek xalqining turmush tarzi, an’anaviy xo’jalik turlari, shu jumladan, milliy hunarmandchilik tarixi va uning sohalari to’g’risida qisqacha ma’lumotlar uchraydi.

Gabriele Keller tomonidan olib borilgan tadqiqot ishi keng qamrovli bo’lib, unda o’zbek milliy an’analari fotosuratlarda aks ettirilgan. Jumladan, tikish va to’qish O’zbekistondagi milliy hunarmandchilikning yuksak namunalari hisoblanishi, ularning o’zbek ayollari tomonidan yuksak mahorat bilan bajarilishi, ayniqsa, zardo’zlik liboslarining tantanalarda kiyilishi e’tiborga sazovordir.

Nemis tadqiqotchilari B. Vollenveber va P. Frankerlarning tadqiqot ishlarida muhim ma’lumotlar berilgan bo’lib, qadimiy gilamdo’zlik markazlari Farg’ona, Nurota, Sirdaryo, Surxondaryo va Qoraqalpog’istonda keng rivojlanganligi e’tirof etilgan.

Mustaqillik yillarida milliy hunarmandchilikning rivojlanishi haqida fransuz tadqiqotchilari tomonidan ham monografik asarlar yaratilgan. Masalan, Gerald Degeorge va Pierri Chuvenlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o’zbek milliy hunarmandchiligi sohalari, jumladan, naqqoshlik va kashtachilik tarixiga oid ma’lumotlar berilgan.

AQShlik tadqiqotchi olimlar tomonidan milliy hunarmandchilik tarixi, uning tadrijiy, tarixiy va hozirgi rivojlanish xususiyatlari hamda hududiy o’ziga xosligi to’g’risida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Masalan, Rishtonda kulolchilik, Marg’ilonda ipakchilik sohasi va to’quvchi hunarmandlar haqida K. Maklid, B. Madyular tomonidan berilgan ma’lumotlar uchraydi.

Ilmiy izlanuvchi A.Q. To’xtaev o’zining ilmiy-tadqiqot ishida ma’muriy-buyruqbozlikka asoslangan sho’rolar tuzumi davrida milliy hunarmandchilik sanoat asosiga o’tkazilib, an’anaviy “ustoz-shogird” usuliga barham berilganligini, uning o’rniga milliy hunarmand kadrlar tayyorlash siyosati ilgari surilganligini, natijada milliy an’analar va ustachilikning o’ziga xos uslublari yo’qolib borganligini, oltin bilan bog’liq zargarlar hamda etikdo’zlik bilan bog’liq ko’nehilar faoliyati davlat tomonidan rasman taqiqlab qo’yilganligini qayd etgan. Tadqiqotchining hozirgi kun talablaridan kelib chiqib bergan takliflari quyidagilardan iborat:

1. “...mamlakat qishloqlaridagi ortiqcha ishchi kuchini ish bilan ta’minlash maqsadida qishloq xo’jaligidagi mavjud xom ashyoni qayta ishlashga ixtisoslashgan kasanachilikka asoslangan ishlab chiqarishlar va xalq hunarmandchiligi korxonalarini tashkil qilish;
2. ishsiz xotin-qizlarni ish bilan ta’minlash uchun ularni kasanachilik va milliy hunarmandchilik tarmoqlariga keng jalb qilish;
3. milliy hunarmandchilikni rivojlantirish maqsadida an’anaviy hunarmand kadrlar tayyorlashning “ustoz-shogird” maktabini rasman tan olish va shu usulda o’qitishni yo’lga qo’yish;
4. milliy hunarmandchilikni mahalliy va yengil sanoat tarmoqlariga qo’shmagan holda, alohida Hunarmandchilik vazirligini tashkil etish”.

O’tgan yillar davomida tadqiqotchi bergan takliflarning barchasi bugungi kunda amalga oshirilmoqda. Jumladan, vazirlik maqomidagi O’zbekiston “Hunarmand” uyushmasi tashkil etilgan. Biroq tarmoq rivojlanishida uning ijtimoiy-geografik asoslari va mintaqaviy xususiyatlari muhim o’rin tutadi.

O’zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov Farg’ona mintaqasi milliy hunarmandchiligiga quyidagicha baho bergan:

“Farg’ona vodiysida milliy hunarmandchilikning atlas to’qish, kulolchilik, do’ppido’zlik, sandiqsozlik, yog’och o’ymakorligi kabi turlari qadim-qadimdan rivojlangan. Rishton kulolchilik maktabi vakillari I. Kamalov, R. Usmanov, Y. Polvonov, qo’qonlik yog’och o’ymakor H. Umarov, ganchkor J. Erkaboev, kashtado’z S. Shomurodova, marg’ilonlik do’ppido’z T. Nurmatova kabi qo’li gul murabbiylar ana shunday milliy an’analarni avaylab-asrab, rivojlantirib kelishmoqda. Bu sohani yoshlarga bajonidil o’rgatishni istovchi yana yuzlab mohir

hunarmandlar bor.

Bu sohada bor imkoniyatlardan kengroq foydalanib, hunarmandlarga mini kreditlar berishni takomillashtirish, ularga berilgan imtiyozlardan samarali foydalanish chora-tadbirlarini ko‘rish zarur”.

Yana bir tarix tadqiqotchisi U.A. Qilichev mustaqillik yillarida O‘zbekistonda milliy hunarmandchilikning rivojlanishini tadqiq etar ekan, milliy hunarmandchilik ekoturizmning rivojlanish omili ekanligini ta’kidlaydi. U o‘zining ilmiy-tadqiqot ishlari natijalariga tayanib, quyidagi tavsiya va takliflarni ilgari suradi:

1. “...milliy hunarmandchilik bilan bog‘liq tashkilot, uyushma, qo‘mita va jamg‘armalarning huquqlari hamda amaliy faoliyati doirasini yanada kengaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish;
2. soha yuzasidan xalqaro aloqalarni yanada keng yo‘lga qo‘yish, ekoturizm **obyektlarini** jahon standartlari asosida jihozlash, qulay takliflar orqali sayyohlarni ko‘proq jalb etish, shu jumladan, milliy hunarmandchilik mahsulotlari sotiladigan bozorlar va markazlar faoliyatini yanada jonlantirish;
3. Respublika “Hunarmand” uyushmasi muassisligida milliy hunarmandchilik tarixi yuzasidan **ilmiy markaz** tashkil etish;
4. milliy hunarmandchilik tarixi yuzasidan Respublika miqyosida anjumanlar tashkil etish.”

Tadqiqotchining milliy hunarmandchilikni rivojlantirish ekoturizmning taraqqiy etishidagi omil ekanligiga ahamiyat berganligi, milliy hunarmandchilik tarixini rivojlantirish bo‘yicha bergan tavsiya va takliflarini yuqori baholash lozim. Ammo O‘zbekistonda milliy hunarmandchilik va ekoturizmni rivojlantirishning ijtimoiy-geografik asoslarini tadqiq etish o‘ziga xos **spetsifik** dolzarblikka ega.

Ekoturizm XXI asrda taraqqiy etayotgan jarayon bo‘lib, u muhim daromad manbaiga aylandi. Ekoturizm mamlakat xalq xo‘jaligi tizimiga ta’sir ko‘rsatib, uning xizmatlar ko‘rsatish sohasiga ixtisoslashuviga sabab bo‘ladi. Bugungi kunda ekoturizm va xizmatlar ko‘rsatish jarayonlariga oid ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Geograf tadqiqotchilardan M.R. Usmanov O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlarini (Samarqand viloyati misolida) tadqiq etishi natijasida mamlakatning barcha mintaqalariga tegishli quyidagi mulohazalarni keltiradi:

Mamlakatda ekoturizm industriyasi va infratuzilmasini shakllantirish, ular bilan bog‘liq masalalarga ustuvor ahamiyat berish kerak. Bu borada, xususan, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xorazm, Surxondaryo va Farg‘ona vodiysida mazkur sohaga jiddiy yondashish talab etiladi. Mintaqalarning ekoturizm imkoniyatlaridan samarali foydalanish va mavjud muammolarni o‘rganishda tadqiqotning so‘rov usulidan keng ko‘lamda foydalanish, turli bosqichdagi hududiy ekoturizm majmualari shakllanishini takomillashtirish kabilar shular jumlasidandir.

Umumjahon ekoturizm sohasi so‘nggi yarim asr davomida turli muammolarning salbiy ta’siriga uchradi. Tabiiy ofatlar va epidemiyalar, jiddiy ijtimoiy portlashlar, urushlar, jangovar harakatlar, iqtisodiy inqirozlar va terrorizm kabi hodisalar sohaning rivojlanishiga yetarlicha to‘sqinlik ko‘rsatdi. Ana shunday xavflarga qarshilik ko‘rsatar ekan, ekoturizm industriyasi murakkab ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sharoitlarga moslashish hamda faoliyat yuritish ko‘nikmalarini o‘zlashtirib oldi.

Ta’kidlash joizki, **BMTning** Umumjahon ekoturizm tashkiloti (YuNVTO) ma’lumotiga ko‘ra, 2007-yilda xalqaro sayyohlar oqimi taxminan 6 %ga ortgan va xorijiy mamlakatlarga tashrif buyurgan sayyohlarning umumiy soni 900 mln nafarni tashkil etgan. Bu bor-yo‘g‘i ikki yil avval qayd etilgan va rekord natija sifatida e’tirof etilgan **800 mln nafar** sayyoh tashrifi ko‘rsatkichidan ancha yuqori hisoblanadi. Dunyoning barcha mintaqalarida YuNVTONing uzoq muddatli bashoratlarida belgilangan ko‘rsatkichlarning ortishi kuzatilgan. Masalan, dunyodagi eng yirik ekoturizm mintaqasi hisoblanuvchi Yevropada o‘shish sur’ati 4 %ni tashkil qilib, xalqaro ekoturizm tashriflarining umumiy soni 480 mln dan ortib ketdi.

Biroq YuNVTO ekspertlarining ta’kidlashicha, eng salmoqli o‘zgarishlar sharqiy yo‘nalishda sodir bo‘lgan. **Holbuki**, rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyat qismi aynan Sharqda joylashgan. Xususan, so‘nggi yillarda yangi va jadal rivojlanayotgan bozorlardagi ekoturizmning o‘shish sur’ati 6–8 %ni tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich sanoati rivojlangan mamlakatlarnikiga qaraganda qariyb ikki barobar yuqori. Buni izohlar ekan, ta’kidlash joizki, rivojlangan mamlakatlarning 70 %i uchun ekoturizm sohasidan tushadigan daromad iqtisodiyotning katta ulushini tashkil qiladi.

2008-yilning boshlarida voqealar rivoji doimgidek kechayotgan edi. 2008-yilning yanvaridan aprelogacha bo'lgan davr mobaynida (bu, odatda, ekoturizm uchun eng qulay deb hisoblanmaydigan oylar bo'lsa-da, iqtisodiy inqiroz hali keng miqyosda tarqalmagan edi) ekoturizm xizmatlarining dunyo bo'yicha hajmi biroz kamaygan bo'lsa-da (o'sish 5 %ni tashkil qilgan edi), baribir YuNVTOning uzoq muddatli bashorati ko'rsatkichlaridan 1 %ga ortiq edi. Lekin yil o'rtalariga borib, ekoturizm sohasida inqirozning salbiy ta'siri sezila boshladi. Joriy yil yakuniga kelib, umumjahon ekspertlar hamjamiyati tarmoqdagi ko'rsatkichlar pasayishini qayd etsa-da, baribir uzoq muddatli bashoratlarni ijobiy deb baholadi.

Jahon iqtisodiyotida jiddiy bo'hronlar kuzatilmoqda va ular tobora kengayib bormoqda. Xalqaro valyuta jamg'armasi ekspertlarining fikriga ko'ra, bu inqiroz Ikkinchi jahon urushidan keyin sodir bo'lgan iqtisodiy tangliklar ichida eng kuchlisi bo'lib, tizimli xususiyatga ega. Inqiroz moliya bozorlarining parokanda bo'lishi bilan cheklanmasdan, Amerika va Yevropa bozorlarining eng muhim iste'mol sektorlarini izdan chiqardi.

YuNVTO tashkilotining Bosh kotibi Franchesko Franjiallining **UNWTO News** nashrining so'nggi sonida Umumjahon ekoturizm industriyasiga qilgan murojaatida quyidagilar bayon etilgan:

“Real iqtisodiyot sohasini ham qamrab olgan inqiroz ekoturizm sohasiga salbiy ta'sir ko'rsata boshladi. Iste'mol bo'yicha, shu jumladan, transport va hordiq chiqarish uchun sarflanadigan xarajatlar sezilarli darajada kamayib ketdi.”

Xalqaro ekoturizm tashkiloti rahbarining fikricha, iste'mol xarajatlarining kamayishi rivojlangan mamlakatlardagi ekoturizm industriyasining o'zagi hisoblanmish kichik va o'rta biznesga juda kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Franchesko Franjiallining fikricha, sodir bo'layotgan iqtisodiy bo'hronlar oqibatida iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari ekoturizmga qaraganda kamroq talafot ko'radi va shu bilan birga inqirozning salbiy ta'sirini muayyan darajada yumshatib berishi mumkin. Lekin voqealarning sayohatlar va hordiq chiqarish industriyasi uchun salbiy ssenariy asosida kechishini ham inobatga olish lozimligini ta'kidlaydi.

YuNVTO ekspertlar hamjamiyati o'z yetakchisining fikriga qo'shilgan holda, 2009-yilning bahorgi ekoturizm mavsumi boshlanishiga qadar vaziyat yaxshilanishi borasida ancha ehtiyotkor va bosiq bashoratlarni e'lon qilgan. Shu bilan birga, mutaxassislarning taxminiga ko'ra, sayohatlarga bo'lgan talab keyingi yilning yozida yana ortishi mumkin. Buning uchun jahondagi iqtisodiy vaziyat hech bo'lmaganda hozirgi darajada saqlanib qolishi kerak.

2008-yil kirib kelishidan ancha avval, voqealar rivojlanishining oldini olish maqsadida YuNVTO tashkiloti jahon ekoturizmga nisbatan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan inqiroziy xurujlar ta'sirini kamaytirishga qaratilgan tayyorgarlik ishlarini boshlab yuborgan edi. Tashkilotning mas'ul xodimi, YuNVTO professori Piter Kellerga birinchi navbatda bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar rejasini ishlab chiqish topshirilgan.

Ana shunday vazifalardan biri — bu yuzaga kelishi mumkin bo'lgan iqtisodiy qaltisliklardir. So'nggi yillarda sodir bo'lgan inqirozlarning oqibatlarini baholash, ularning jahon ekoturizmga ta'sirini tahlil qilish, shuningdek, vaziyat o'zgarishiga sabab bo'luvchi eng muhim omillarni belgilashdan iborat.

Professor Piter Keller guruhi tomonidan bajarilgan ishlar bo'yicha dastlabki natijalar **«Jahon ekoturizmidagi global disbalanslar va tuzilmaviy o'zgarishlar»** deb nomlangan tadqiqot ishida YuNVTO Ijroiya qo'mitasining 84-sessiyasida (Madrid, Ispaniya, 2008-yil oktabr) e'lon qilingan edi. So'ngra tegishli qo'shimcha va tuzatishlar kiritilib, Londonda bo'lib o'tgan ekoturizm yarmarkasida (World Travel Market–2008) taqdim etilgan.

Professor Piter Kellerning fikricha: «Uzoq muddatli bashoratlarni belgilashda muayyan noaniqliklar mavjud bo'lsa-da, bugungi kundagi iqtisodiy tanglik hukm surayotgan sharoitda ekoturizm barqaror sektor sifatida tan olinmoqda».

Shu sabablarga ko'ra, YuNVTO Ijroiya kengashi tomonidan quyidagi qarorlar qabul qilingan:

a) o'z a'zolaridan tarkib topgan va YuNVTOning haqiqiy hamda qo'shilgan a'zolari uchun ochiq bo'lgan **«Ekoturizm barqarorligi bo'yicha qo'mita»** (TRC – **Tourism Resilience Committee**)ni tuzish;

b) havo transporti va asosiy milliy ekoturizm bozorlaridagi vaziyatga **alohida** e'tibor qaratgan holda, iqtisodiy ta'sirlar bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar jamlash yo'li bilan bu ishga har tomonlama ko'mak berish va qo'llab-quvvatlash;

v) barcha manfaatdor tomonlarni zamonaviy texnologiyalar vositasida muhim va dolzarb ma'lumotlar

bilan o'z vaqtida ta'minlab turish, inqirozning salbiy ta'sirlariga **«tezkor javob qaytarish»** amaliyotini qo'llash bo'yicha zarur shart-sharoitlarni yaratish.

Ta'kidlash joizki, bu YuNVTO tomonidan jahon ekoturizm hamjamiyati kuchlarini tabiiy va texnogen xususiyatga ega inqiroziy vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishga yo'naltirish bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlarning birinchisi emas.

Bir qator Osiyo mamlakatlarida ekoturizm sohasi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tashkilotlar ma'muriyati YuNVTONing tavsiyalaridan unumli foydalanmoqda.

Umumjahon iqtisodiy va moliyaviy inqirozining Osiyodagi ekoturizm bozoriga ko'rsatayotgan ta'siri YuNVTONing Xitoyda yaqinda bo'lib o'tgan **«Ekoturizm va Osiyo – Tinch okeani mintaqasi uchun rivojlanish istiqbollari»** nomli ikkinchi konferensiyasida ham muhokama qilingan. Mazkur forumda ishtirok etgan 25 ta mamlakatning 100 nafardan ortiq ekspertlari mintaqa rivojlanishida ekoturizmning o'rni nihoyatda muhim ekanligini ta'kidlaganlar.

«YuNVTO barometri – 2008» ma'lumotlariga ko'ra, Osiyo – Tinch okeani mintaqasi ekoturizm eng tez rivojlanayotgan mintaqa hisoblanadi, biroq bu yerda ham o'sish sur'atining pasayayotgani kuzatilmoqda. Masalan, 2008-yilning yanvar–oktabr oylari mobaynida mazkur mintaqada xalqaro ekoturizm tashriflarining umumiy o'sishi 3 %ni tashkil etgan. Vaholanki, 2007-yilda bu ko'rsatkich 10,5 %ga teng bo'lgan edi.

O'sish sur'atining pasayishi, ayniqsa, neft narxining tez-tez o'zgarishi natijasida mintaqaviy ekoturizm mahsulotining transport bilan bog'liq tarkibiy qismi qimmatlashishiga va havo orqali yo'lovchi tashish hajmining kamayishiga olib keldi. Ekoturizm sohasidagi ko'rsatkichlarning dunyo miqyosida pasayishi global xususiyat kasb etmoqda va mazkur ta'sirlar tobora kuchayib bormoqda. Ekoturizmdan tushayotgan mablag'larning umumiy hajmi to'g'risida hozircha aniq ma'lumotlar bo'lmasa-da, bu ko'rsatkichning kamayishi kutilmoqda: sayohatlarning davomiyligi qisqargan, ekoturizm **xarajatlarida**, jumladan, istiqomat va ko'ngilochar tomoshalar sohasida ham sezilarli darajada kamayish kuzatilmoqda.

Ekspertlar hamjamiyatining fikricha, qisqa muddatli bashoratlarga ko'ra, ekoturizm, garchi avvalgiga qaraganda ancha sekinroq rivojlansa-da, yetarli darajada o'z mavqeini tiklash va mustahkamlashga harakat qilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, mintaqaviy iqtisodiyotning tiklanishida muhim omil bo'lishi mumkin.

YuNVTO qaroriga ko'ra, quyidagilar belgilangan:

1. ekoturizm mamlakat uchun iqtisodiyotning boshqa sektorlariga qaraganda ko'proq afzalliklarni yaratib berishi mumkin. Sababi — inson tabiatiga xos bo'lgan **alohida** mobillik mavjud bo'lib, aynan shu **xislat** hisobiga ekoturizm sohasi doim rivojlanib kelgan va rivojlanaveradi;
2. ishbilarmonlik va hordiq chiqarish bilan bog'liq ekoturizm savdo-sotiq rivojlanishini rag'batlantiradi, kommunikatsiyalar kengayishiga turtki bo'lib xizmat qiladi hamda zamonaviy turmush tarzini qo'llab-quvvatlaydi;
3. ekoturizm xizmatlar eksportining eng yirik sektorlaridan biri bo'lib, dunyo miqyosida rivojlanishning eng ahamiyatli tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 591 b.
2. Karimov I. A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi. O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – Toshkent: O'zbekiston, 2009. – 48 b.
3. Kuraxmedov A. Samarqandlik hunarmandlar // Fan va turmush. – 2000. – № 5. – B. 21–22.
4. Сулейманов И. К. О кадровом потенциале ремесленников в Узбекистане 20-х годов // Общественные науки в Узбекистане. – 1998. – № 6. – С. 43–44.
5. То'xtaev A. Q. O'zbekistonda milliy hunarmandchilik va uni «sotsialistik» asosda sanoatlashtirishning ijtimoiy oqibatlar (1917–1941-yillar): tarix fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2001.
6. Qilichev U. A. O'zbekistonda milliy hunarmandchilikning rivojlanishi (1991–2006-yy.): tarix fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2010.
7. Hamidova M. O'zbekistonning kashtasi-yu zardo'zi // Fan va turmush. – 2000. – № 5. – B. 39–40.
8. Пещерева Е. М. Гончарное производство Средней Азии. – М.; Л., 1959.

9. Развадский В. Опыт исследования гончарного и некоторых других кустарных промыслов в Туркестанском крае. – Ташкент, 1916.
10. Rassudova R. O‘zbek kashtachilik san’ati. – Toshkent, 1961.
11. Рахимов М. К. Народные принципы в современной художественной керамике Узбекистана. – Ташкент, 1964.
12. Sohibqiron Amir Temur davrida hunarmandchilik // Toshkent oqshomi. – 2004. – Iyul.
13. Sergeev B. O‘zbekistonda misgarlik. – Toshkent, 1963.
14. Фахретдинова Д. А. Ювелирное искусство Узбекистана. – Ташкент, 1998. – С. 64.
15. Cheloveskaya G. I. Kashtachilik. O‘zbekiston so‘zanasi. – Toshkent, 1961.